IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: IE65185373

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORINING

BUYRUG‘I

26 oktabr 2026 yil. **11ich--205-son**

Ta’lim sifati va mazmunini takomillashtirish, talabalar fikr-mulohazalari, mavjud muammo va takliflarni o‘rganish yuzasidan talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish to‘g‘risida

Ta’lim sifati va mazmunini takomillashtirish, talabalar fikr-mulohazalarini o‘rganish, mavjud muammo va takliflarni aniqlash, ta’lim sifatini yanada oshirish, o‘quv jarayonining takomillashtirish hamda amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini aniqlash uchun talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ta’lim sifati ta’minlash bo‘limi va fakultet dekanlariga:

Institut talabalari o‘rtasida ta’lim sifati, o‘quv jarayonining tashkil etilishi, professor-o‘qituvchilar faoliyati, yaratilgan shart-sharoitlar hamda talabalarni qiziqtirgan boshqa masalalar yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazilsin.

So‘rovnoma orqali talabalarning ta’lim jarayoni, dars mashg‘ulotlarining tashkil etilishi, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, o‘quv-uslubiy ta’minot va mavjud sharoitlar yuzasidan fikr-mulohazalari o‘rganilsin;

- so‘rovnoma ta’lim jarayonida uchrayotgan muammolar, talabalarni qiynayotgan masalalar hamda ta’lim sifati va mazmunini yaxshilashga qaratilsin;

- Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi tomonidan so‘rovnoma savollari ishlab chiqilsin, so‘rovnomani o‘tkazish tartibi va muddatlari belgilansin.

Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari so‘rovnomada talabalarning to‘liq va faol ishtirokini ta’minlasinlar;

- so‘rovnoma jarayonida xolislik, shaffoflik, ixtiyoriylik tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilsin va talabalarga o‘z fikr-mulohazalarini erkin bildirish imkoniyatini yaratsin.

2. So‘rovnoma natijalari belgilangan tartibda tahlil qilinib, aniqlangan muammolar, takliflar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar yuzasidan rahbariyatga ma’lumot kiritilsin.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi zimmasiga yuklatilsin.

Asos: *Bo‘limi nizomi va ish rejasi.*

Rektor **J.X.Karshibayev**